

## MIJOZ UCHUN CHEK-LIST

Tashqi savdo shartnomalari va invoyslarga qo‘yiladigan minimal talablar bo‘yicha. Hujjatlarni topshirishdan oldin tashqi savdo shartnomasida quyidagi majburiy ma’lumotlar mavjudligini tekshiring:

### 1. Kirish qismi

- shartnoma raqami
- tuzilgan sana
- tuzilgan joy
- tomonlarning to‘liq nomlari
- shartnomani imzolovchi shaxslarning lavozimi va F.I.Sh.
- agar shartnoma ishonchnoma asosida imzolangan bo‘lsa, bu holat preambulada ko‘rsatilishi va ishonchnoma shartnomaga ilova qilinishi kerak.
- agar shartnomani imzolagan tomon to‘lovchi yoki tovarni qabul qiluvchi bo‘lmasa, yoki haqiqiy yetkazib beruvchi sotuvchidan farq qilsa, bunday tomonlar shartnomada alohida ko‘rsatilishi lozim.

### 2. Shartnoma predmeti

- tovar / ishlar / xizmatlar nomi
- bitim turi
- tovarning xarakteristikalarini
- miqdor va sifat bo‘yicha assortimenti
- tovar miqdori xalqaro metr tizimi birliklarida yoki O‘zbekiston Respublikasida qo‘llaniladigan o‘lchov birliklarida
- tovar sifati (tovardan foydalanishga yaroqliligini ko‘rsatuvchi xususiyatlar yig‘indisi) va TN VED bo‘yicha tovar kodi
- tovarning xalqaro standartlari
- O‘zbekiston Respublikasida amal qiladigan standartlar
- tip, model, marka, sort
- davlat ro‘yxatidan o‘tganligi haqida ma’lumot
- muvofiqlik sertifikatini (agar mavjud bo‘lsa)
- agar uskuna yoki texnika yetkazib berilsa, u yangi yoki avval ishlatilganligi ko‘rsatilishi lozim; agar ishlatilgan bo‘lsa – ishlatilgan muddati yoki eskirish foizi.

### 3. Inkoterms xalqaro qoidalari qo‘llanilganda yetkazib berishning bazis shartlari

- yetkazib berish sharti (masalan: FOB, CIF, CIP, FCA va h.k.)
- yetkazib berish joyi (temir yo‘l stansiyasi, port, aeroport va h.k. nomi).

### 4. Tovarni yetkazib berish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish muddati va sanasi

Yetkazib beruvchi tomonidan belgilangan muddatlar majburiyatlarni bajarishning yakuniy muddati hisoblanadi.

### 5. Shartnoma spesifikatsiyasi (o‘lchov birliklarida)

- tovarning bir o'lov birligi uchun narxi (o'lov birligi TN VEDga mos bo'lishi kerak)
  - shartnomaning umumiy summasi (tovar, ishlar va xizmatlar qiymati)
  - agar shartnomada montaj, ishga tushirish-sozlash ishlari, xodimlarni o'qitish, royalti nazarda tutilgan bo'lsa, ularning qiymati alohida ko'rsatilishi kerak.
- Agar shartnoma tuzilgan paytda umumiy summani aniqlash mumkin bo'lmasa, uni ko'rsatmaslikka ruxsat etiladi. Bu holda to'lov shartnoma spesifikasiyasi asosida amalga oshirilishi ko'rsatiladi.

## 6. To'lov shartlari

- to'lov valyutasi (tomonlar kelishuvi asosida belgilanadi)
- to'lov shakli
- to'lov muddati
- agar to'lov valyutasi  $\neq$  shartnoma valyutasi bo'lsa, qayta hisoblash kursi va kurs manbasi ko'rsatilishi kerak.

## 7. Tovarining kelib chiqishi

- yetkazib berilayotgan tovarning kelib chiqish mamlakati
- tovar ishlab chiqaruvchisi
- ishlar bajarilgan / xizmatlar ko'rsatilgan mamlakat.

## 8. Tomonlarning javobgarligi

- shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun jarima va/yoki penya
- neustoyka: aybdor tomon jabrlangan tomon talabiga binoan kompensatsiya to'lashi shart.

## 9. Tomonlarning rekvizitlari

- yuridik manzil
- pochta rekvizitlari
- bank rekvizitlari
- yuk jo'natish rekvizitlari.

## 10. Barter shartnomalarining o'ziga xos jihatlari

Import tovarlarini oldindan yetkazib berish yoki qarshi bank kafolatlarini taqdim etishni nazarda tutuvchi shartlar majburiy tarzda hisobga olinadi.

## 11. Shartnoma tili

- davlat tilida
- yoki tomonlar kelishuviga ko'ra boshqa tilda + davlat tiliga tarjima qilinib, belgilangan tartibda tasdiqlanishi kerak.



Shartnoma shartlariga kiritiladigan har qanday o'zgartish va qo'shimchalar qo'shimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi va Mijoz tomonidan Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimida (E-kontrakt" TSAT) ro'yxatdan o'tkaziladi.  
Murojat uchun tel: 1809